

**Andijon Davlat Universiteti, PhD, Iqro
jurnali bosh muharriri o'rribbosari
Qozoqboyeva Dilfuzaxon Ilxomjon qizi
taqrizi ostida**

**Akbarova Zarinabonu Inomjon qizi
Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti
2-bosqich talabasi
Aloqa uchun: +998999751245**

BIR G‘AZAL TALQINI VA TAHLILI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hazrat Alisher Navoiy lirikasining o‘ziga xosligi haqida mulohaza yuritilgan va shoirning "O‘n sakkiz yosh hayratlari" nomli g‘azalining g‘oyaviy - badiiy xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Falsafiy mushohada, oshub, ishqilohiy, ishqimajoziy, soqiy, xuffosh, o‘n sakkiz.

O‘zbek mumtoz adabiyotining XV asrgacha bo‘lgan tarixiy taraqqiyotiga yakun yasab, uni yanada yuqori pag‘onaga ko‘targan ulug‘ iste‘dod sohibi, mutafakkir Alisher Navoiy o‘z ijodiy faoliyati bilan jahon adabiyotining yirik namoyondalari safidan faxrli o‘rin egallaydi.

Navoiy asarlari so‘z san‘atining yuksak g‘oyalar ifodalangan oliy namunasi bo‘lishi bilan birga mukammal adabiy til namunasidir. Navoiy asarlari tilining boy va go‘zalligi shundaki, unda oddiy so‘zlashuvda, kundalik turmushda ishlatalidigan so‘zlardan tortib turli ilm-u fanlarga oid atamalargacha juda aniq va o‘rinli foydalanilgan. Navoiy tilidagi so‘zlar ko‘lam jihatidangina emas, rang-baranglik jihatidan ham diqqatga sazovordir. Alisher Navoiy asarlarini o‘rganish uchun, eng avvalo, falsafiy dunyoqarshga bundan tashqari diniy, tasavuffiy bilimlarga ega bo‘lish kerak. Bu haqda adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, tasavvuf ilmining bilimdoni Najmiddin Komilov shunday deydi: “Sharq xalqlari tafakkuri tarixida chuqur ildiz otgan tasavvuf ta‘limotini yaxshi bilmay turib, Alisher Navoiy dunyoqarashi va adabiy merosini barcha murakkabliklari, falsafiy teranligi bilan to‘liq holda to‘g‘ri, haqqoniy yoritib berish mushkul...”[1]

Navoiy turkiy tilda ko‘p va xo‘b asarlar yaratdi, asarlarning ham eng oliy namunalarini yaratdi. O‘z lirikasi bilan adabiyotimizga yangiliklar olib kirdi. Shoir she‘rlari hech kimnikiga o‘xshamagan, hatto biz xayolimizga ham keltirmagan, aqlimizga ham sig‘dira olmaydigan ma‘no va mazmun bilan to‘la. Navoiyning buyukligi ham, uni Navoiy qilib turadigan narsa ham aslida shudir.

Navoiy lirikasida eng ko‘p g‘azal janriga duch kelamiz. Shoir g‘azallarining mavzusi ham, ma‘no mohiyati ham xilma xil. Navoiy hamma mavzuda: ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ma‘rifiy, falsafiy va eng ko‘p ishqiy mavzuda she‘rlar bitgan. Uning “O‘n sakkiz yosh hayratlari” nomli g‘azalida ham ishqiy-falsafiy ma‘nolarni ko‘rishimiz mumkin.

O‘n sakiz ming olam oshubi agar boshindadur,

Ne ajab, chun sarvinozim o‘n sakiz yoshindadur.

G‘azal usluban ta’rif-tavsif turida yaratilgan. Asarning mazmun mohiyati o‘n sakkiz yoshdagি ma‘shuqaning husn-u jamolini vasf etishga qaratilgan. Lekin bu vasf inson umrining navqiron pallasi va hamda husn-u jamol haqidagi falsafiy mushohadalar bilan yo‘g‘rilgan. Ba‘zi baytlarda tavsif ikkinchi o‘ringa tushib, ta‘rif birinchi o‘ringa chiqadi yoki ikkalasi ham uyg‘un aks ettirilgan bo‘ladi. Shunday bo‘lsa-da, ularda falsafiy mohiyat yetakchilik qiladi. Matla‘da o‘n

sakkiz yoshli dilbarning sarvinozligidan, ya‘ni go‘zalligidan ko‘ra, uning shu yoshdag‘i ma‘naviyati muhimroq ekanligiga urg‘u berilgan. Ota-bobolarimiz koinotni o‘n sakkiz ming olamdan iborat deb anglaganlar. “Oshub” – g‘avg‘o, to‘polon degani. Shoir yorining, sarvinozining boshida o‘n sakkiz ming olamning g‘avg‘osi borligini, lekin bundan ajablanmaslik kerakligini, axir yori endigina o‘n sakkiz yoshda ekanligini ta‘kidlamoqchi. Baytga chuqurroq kirib borsak, bu yerda faqat lirik qahramon sarvinozining holiga emas, butun insoniyatdagi o‘n sakkiz yoshlilarga ta‘rif bergenligini tushunib yetamiz. Ta‘rif umuminsoniy ekan, demak, o‘n sakkiz yoshli sarvinoz ham umumlashma obrazdir. Bu haqda adabiyotshunos olim Nusratulla Jumaxo‘ja shunday fikrlarni bildirib o‘tadi: “Ta‘rif umuminsoniy bo‘lganidek, nazarimizda, o‘n sakkiz yashar sarvinoz ham umumlashma obraz. Asarda o‘n sakkiz yoshli muayyan inson tasvirlangai bo‘lishi ehtimol, uning hayotiy siyomosi bizga ma’lum emas. Balki, matla’dagi ta‘rifu tavsifga o‘n sakkiz yashar go‘zal qiz emas, barkamol bir o‘spirin tal’ati asos bo‘lgandir.

Muhtaram muxlis, Navoiy yigit kishini vasf etgani haqidagi taxminimizga darhol e’tiroz bildirish yoxud buni noto‘gri talqin etishdan saqlanishingizni so‘raymiz. Bu-hali ilmda o‘rganilmagan muammo. Navoiyning yigitlar vasfida bitilgan o‘nlab rubobiyl (lirik) asarlari borki, ular turli andishalar bilan „Xazoyin ul-maoniy“ning 1959-60-yillarda chop etilgan Hamid Sulaymon nashriga kiritilmagan va xalqqa yetib bormagan. Bu g‘azal hamda qit’alar Navoiy mukammal asarlari to‘plamida bosilmoqda va endi ilmiy baholansa kerak. Nazarimda, bu hodisa Navoiy dunyoqarashi bilan bogliq. Navoiy insonda ilohiy yetuklikni, ilohda insoniy go‘zallikni ko‘gan. Mutafakkir o‘zi sig‘ingan ilohiy qudrat, navqironlik, barkamollik, hayratomuz sehru sinoatni, jismoniy va aqliy tengsizlikni yigitlar siyomosida tajassum ettirgan bo‘lsa, ajab emas.

Harqalay, asarga o‘n sakkiz ming olamni mushohada etishga qodir, o‘n sakkiz ming olam dardi bilan yashaydigan, aqlu zakovati o‘n sakkiz ming olam tilsimlarini yecha oladigan, husni o‘n sakkiz ming olamni lol qoldiradigan, hayajon va ehtiroslari o‘n sakkiz ming olamni o‘rtaydigan o‘n sakkiz yoshli inson siyomosi sabab bo‘lgan. Ehtimol, bu Navoiy orzusidagi komil insondur“. [2, 313-b]

Keyingi baytlarda birinchi baytdagi g‘oyaviy mazmun takomillashib boradi:

Desa bo‘lg‘aykim, yana ham o‘n sakiz yil husni bor,

O‘n sakiz yoshinda muncha fitnakim boshindadur.

O‘n sakiz yil dema, yuz sakson yil o‘lsa, uldurur

Husn shohi, ul balolarkim, ko‘zu qoshindadur.

Ushbu baytlardan boshlab lirik qahramon umumlashma obrazlikdan chiqadi, ya‘ni o‘n sakkiz yoshli inson emas, o‘n sakkiz yoshli ma‘shuqa ta‘rifi beriladi. Chunki baytda ko‘proq ayollarga xos fazilatlar qalamga olingan. Darhaqiqat, Navoiyning bu kabi baytlarida ishq majoziy ko‘proq ko‘zga tashlansa-da, uning tag zamirida ishq ilohiy, ya‘ni ungagina bo‘lgan muhabbat, ungagina bo‘lgan ta‘rif-u tavsif yotadi. Fikrimizni uchinchi baytdagi "Husn shohi" (Allah) iborasi tasdiqlaydi.

Shoir ikkinchi baytda Sarvinoz o‘n sakkiz yoshida o‘n sakkiz ming olamga teng husn-u jamolni zohir etdi, o‘n sakkiz ming olam g‘avg‘olari boshiga tushdi, u yana o‘n sakkiz yil shunday yura oladi deydi-da, keyingi baytda bu fikriga qarshi chiqadi: o‘n sakkiz yil dema, yana yuz sakson yil o‘tsa ham u husn shohi bo‘lib qolaveradi.

Hayrat etmon husni naqshidaki, har hayratki bor,

Barchasi ezid taolo sun'i naqqoshindadur.

Bayt yana "Husn shohi" ta'rifida. Har qanday go'zallikning, har bir modda, jism, jonzot va insonning ham yaratuvchisi "sun'i naqqoshi", ya'ni Xudodir.

Navbatdagi baytda sarvinozning go'zal, ammo benihoya qahri qattiq, bag'ritosh ekanligi tasvirlanadi:

Tan anga siymu ichinda tosh muzmar ko 'nglidin,

Aqlg'a yuz hayrat, ul oyning ichu toshindadur.

Sarvinozning tashqi ko'rinishi go'zalligidan insonni o'ziga maftun etadi, ammo bu tashqi ko'rinishning ichki ko'rinishi toshdan iborat.

Keyingi baytda mayfurushga murojaat qilinadi:

May ketur, ey mug'ki, yuz hayrat aro qolmish Masih,

Bul ajablarkim, bu eski dayr xuffoshindadur.

Maqta'dan oldingi bayt ko'pincha alohida mustaqil ma'noga ega bo'ladi va ko'p hollarda soqiyya murojaat shakllari uchraydi. Bu bayt esa g'azalning oldingi bayti bilan chambarchas bog'liq tarzda bitilgan. Oldingi baytlarda lirik qahramonning hayratlari tasvirlangan edi. Bu baytda esa Masih "yuz hayrat aro" qolganligi aytildi. Ya'ni bu mayxona (dunyo) ajoyibotlariga lirik qahramon yuz hayrat bilan boqsa, hatto Masih ham yuz karra hayrat ichida qoladi. "Xuffosh" – ko'rshapalak. Bu obraz ham baytda ma'lum ma'no tashiydi. Ko'rshapalak – lirik qahramon. "Ko'rshapalak, ya'ni lirik qahramon ko'hna mayxona (dunyo) ajoyibotlarini ko'rguncha (mayxonaga kirib, vahdat mayidan qonmaguncha), g'ofil edi. "Eski dayr" ajoyibotlarini idrok etgach, ko'zları yarq etib ochildi va yuz hayratga tushdi. Bunday mo'jizadan jonbaxsh Masih ham yuz hayratga tushadi, chunki u o'likni tiriltirishi bilan mashhur, ko'r ko'ngil ko'ziga nur ato etishga u qodir emas". [2,315]

Maqta'ga kelib ta'rif-u tavsif quyosh va oyga qadar ko'tariladi:

To Navoiy to 'kti ul oy furqatidin bahri ashk,

Har qachon boqsang, quyosh aksi aning yoshindadur.

Navoiy ul oy, ya'ni "Husn shohi" furqatiga – ayrilikiga duchor bo'lganidan beri (bu foniyo'tkinchi dunyoga kelganidan beri) yig'laydi va ko'z yoshlarida ul quyoshning aksi jilolanib, shu'lalanib turadi. E'tibor bersak, dastabki baytlardan boshlangan g'oyaviy mazmun, falsafiy mushohadalar maqta'gacha takomillashib bordi.

Matla'da boshlangan tasvir maqta'gacha izchil rivojlandi. G'azaldagi so'z, obraz, ifodalar ham shunday rivojga muvofiq harakatlantirildi. "O'n sakiz ming olam", "o'n sakiz yil", yana "o'n sakiz yosh", yana "o'n sakiz yil", "yuz sakson yil", "hayrat", "aqlga yuz hayrat", "yuz hayrat" so'z birikmalari g'azaldagi mazmun va g'oyanining silsilaviy tadrijini ta'minladi. Natijada, asar kompozitsiyasi musalsal darajasida takomillashdi.

G‘azal yuksak badiiyati tufayli shuhrat tutdi, xalqqa sevilib, tildan tilga, dildan dilga ko‘chdi. Xonanda Berta Davidova tomonidan klassik qo‘sishq sifatida, maqomshunoslarimiz tomonidan maqom kuylariga solib kuylanib, nash’u namo topdi.

Navoiy ijodi misli bir oxiri yo‘q ummon kabitdir. O‘rganganimiz sari Navoiyni yangidan kashf qilib boraveramiz. Adabiyotimiz oldida hali Navoiyning tahlilga tortilmagan, mag‘zi chaqilmagan minglab g‘azallari mavjud. Ularni o‘rganish, Navoiy dahosini qayta qaytalab kashf etish biz avlodlarning vazifamiz. G‘azalni tushunmay turib, albatta, Navoiy tafakkuriga ham kirib bo‘lmaydi. Biz qanchalik diniy, dunyoviy, falsafiy va tasavvufiy bilimlarimizini ko‘paytirsak, shunchalik Navoiy asarlari sharhiga va tafakkuriga yaqinlashamiz.

Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, insoniyatga, ayniqsa, biz yoshlarga Navoiyning asarlarini o‘rganish, undagi tarbiyaviy pand-nasihatlarni o‘zimizga singdirishimiz kerak. Shu o‘rinda Najmuddin Komilov fikrlarini keltirmoqchiman: “Men aminmanki, insoniyat yangi XXI asrda Navoiy singari ulug‘ mutafakkir ijodkorlarga yanada ko‘proq muhtoj bo‘ladi. Chunki hozir insonning aqliy kashfiyoti behisob va hayratlanarli. Ammo insoniyat ma‘naviy kamolot jihatidan juda ham oldinga borgan emas, aksincha, Navoiy ma‘naviyati cho‘qqisidan qaraydigan bo‘lsak, anchagina orqaga ketganimiz ma‘lum bo‘ladi. Shu uchun ham Navoiyga qaytish, Navoiy olamini yangidan kashf etishning zarurati va ahamiyati katta”. [3.6-b]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/najmuddin-komilov-timsollar-timsoli-alisher-navoiygazaliga-sharh.html>
2. Сирожиддинов Ш. Навоий ғазалиёти талқинлари, — Т.: Ўзбекистон, 2018. 313-б.
3. Н.Комилов. Хизр чашмаси, — Т.: «МАЊНАВИЯТ», 2005. 6-б.
4. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/ilohiy-diydor-yoki-bir-g-azal-sharhi>
5. Fozilov. E. tahriri ostida.Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati, T.: O‘zbekiston SSR „Fan“ nashriyoti, 1983.